



**РОССИЙСКИЙ
КРАСНЫЙ КРЕСТ**
Санкт-Петербургское отделение

«KIRISH MAQSADI – ISH»

Rossiya Federatsiyasiga vizasiz tartibda kirib kelayotgan
chet el fuqarolari uchun eslatma

Sankt-Peterburg

2019

Ushbu nashr Rossiya Federatsiyasidagi, Belarusiyadagi va Moldovadagi Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasining Mintaqaviy vakolatxonasining moliyaviy va texnik yordami bilan Sankt-Peterburgning „Rossiya Qizil Xoch“ Butunrossiya jamoat tashkilotining Sankt-Peterburg bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan „Migratsiya masalalari bo‘yicha resurs markazi“ loyihasi doirasida ishlab chiqilgan va nashr etilgan.

Ma’lumotlar 2019 yil noyabr paytiga taqdim etilgan.

3000 nusxada chop etildi.

«KIRISH MAQSADI – ISH»

Rossiya Federatsiyasiga vizasiz tartibda kirib kelayotgan
chet el fuqarolari uchun eslatma

Sankt-Peterburg

2019

ROSSIYA FEDERATSIYASIGA KIRISH

Rossiya Federatsiyasi hududiga kirishda xorijiy fuqaro **shaxsini tasdiqlaydigan amal qiluvchi hujjat, migratsiya kartasi va ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisiga ega bo'lishi shart.**

Migratsiya kartasini qanday olish va to'ldirish mumkin?

Migratsiya kartasi **Rossiya Federatsiyasining davlat chegarasini kesib o'tishda bepul beriladi.** Migratsiya kartasini to'ldirishda familiya, ism, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa) yozilishning to'g'riligiga e'tibor berish kerak. **"Tashrifning maqsadi" ustunida "ish" ko'rsatilishi lozim.** Migratsiya kartasi rus tilida aniq, tuzatishlarsiz to'ldiriladi. Migratsiya kartasini Rossiya hududida pul mukofoti uchun undan tashqariga chiq masdan turib sotib olishga yo'l qo'yilmaydi.

"А"(Въезд/Arrival)				"Б"(Выезд/Departure)			
Российская Федерация Russian Federation		Республика Беларусь Republic of Belarus		Российская Федерация Russian Federation		Республика Беларусь Republic of Belarus	
Миграционная карта Migration Card		Серия/ Serial	46 10	Миграционная карта Migration Card		Серия/ Serial	46 10
		№	1188367			№	1188367
Фамилия/Surname (Family name)				Фамилия/Surname (Family name)			
Имя/Given name(s)				Имя/Given name(s)			
Отчество/Patronymic				Отчество/Patronymic			
Дата рождения/Date of birth			Пол/Sex	Дата рождения/Date of birth			Пол/Sex
День/ Day	Месяц/ Month	Год/ Year	Муж./Male <input type="checkbox"/>	Жен./Female <input type="checkbox"/>	День/ Day	Месяц/ Month	Год/ Year
Гражданство/Nationality				Гражданство/Nationality			
Документ, удостоверяющий личность/ Passport or other ID				Документ, удостоверяющий личность/ Passport or other ID			
Номер визы/Visa number:				Номер визы/Visa number:			
Цель визита (нужно подчеркнуть) Purpose of travel (to be underlined): Служебный /Official, Туризм/Tourism, Коммерческий/Business, Учеба/Education, Работа/Employment, Частный/Private, Транзит/Transit				Сведения о приглашающей стороне (наименование юридического лица, фамилия, имя, (отчество) физического лица), населенный пункт/Name of host person or company, locality:			
Срок пребывания/Duration of stay: С/From: До/To:				Срок пребывания/Duration of stay: С/From: До/To:			
Подпись/Signature:				Подпись/Signature:			
Служебные отметки/For official use only				Служебные отметки/For official use only			
Въезд в Российскую Федерацию /Республику Беларусь/ Date of arrival in the Russian Federation/Republic of Belarus		Въезд из Российской Федерации /Республики Беларусь/ Date of departure from the Russian Federation/Republic of Belarus		Въезд в Российскую Федерацию /Республику Беларусь/ Date of arrival in the Russian Federation/Republic of Belarus		Въезд из Российской Федерации /Республики Беларусь/ Date of departure from the Russian Federation/Republic of Belarus	

1-rasm. Migratsiya kartasi

Muhim! Migratsiya kartasi chet el fuqarolari uchun Rossiya Federatsiyasi hududidagi eng muhim hujjatdir, u bo‘lmasa chet el fuqarosi Rossiyada qolishi mumkin emas va ishlashiga ruxsat berilmaydi.

➤ Migratsiya kartasi yo‘qolsa nima qilish kerak?

Migratsiya kartasi yo‘qolgan taqdirda, **yaqin atrofdagi politsiya bo‘linmasiga yoki topilmalar idorasiga** (Sankt-Peterburg, Bolshaya Monetnaya ko‘chasi, 16-uy) **murojaat qilish kerak**, u erda murojaat qilinganlik faktini tasdiqlovchi ma‘lumotnoma beriladi. Shundan so‘ng, migratsiya kartasining dublikatini berish to‘g‘risida ariza bilan yashash („ro‘yxatdan o‘tish“) joyidagi migratsiya xizmatining hududiy bo‘linmasiga murojaat qilish kerak. Migratsiya xizmati, fuqaroning Rossiya Federatsiyasiga kirgan hujjatlarini taqdim etganida, **uch ish kuni mobaynida bepul** migratsiya kartasining dublikatini rasmiylashtiradi.

DMS polisini qanday olish mumkin?

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta polisi tegishli fuqarolik davlatida, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan sug‘urta tashkilotlarida (masalan, VSK, ROSNO, Rosgosstrax) berilishi mumkin. Keyinchalik patent olish uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta polisini rasmiylashtirishda **sug‘urta summasi 100 000 rubldan kam bo‘lmasligi** kerakligini hisobga olish kerak. Polisning narxi taqdim etilayotgan xizmatlarga va amal qilish muddatiga bog‘liq.

Muhim! Baxtsiz hodisalar, shikastlanishlar, zaharlanish yoki keskin kasalliklar bo‘lsa, DMS polisining bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar shoshilinch tibbiy yordam bepul taqdim etiladi.

Sankt-Peterburgda tibbiy yordam rad etilgan taqdirda, Sog‘liqni saqlash qo‘mitasiga murojaat qilish mumkin - ishonch telefoni +7 (812) 571-09-06.

MIGRATSIYA HISOBI

Rossiya Federatsiyasida vaqtincha istiqomat qilayotgan chet el fuqarolari yashash joyiga kelgan paytdan boshlab **7 ish kuni** mobaynida ro‘yxatga olinadi (Tojikiston fuqarolari **15 kun** ichida, Armaniston, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston va Qirg‘iziston fuqarolari – **30 kun**).

Migratsiya hisobiga qanday turish kerak?

Migratsiya hisobi ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha barcha tartiblar **qabul qiluvchi** - (yuridik yoki jismoniy shaxs) **tomonidan amalga oshiriladi**, qaysiki chet el fuqarosiga (uxlash va dam olish uchun bo‘lgan) faktik yashash joyini taqdim etadi. Migratsiya hisobini amalga oshirish uchun chet el fuqarosi Rossiya Federatsiyasida qabul qiluvchi tomonga shaxsni tasdiqlovchi hujjat va Rossiya Federatsiyasiga kirish to‘g‘risida chegara nazorati organining belgisi bilan migratsiya kartasini taqdim etadi. Qabul qiluvchi tomon esa hujjatlarni Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ko‘p vazifali markaziga (MFS), “Pochta Rossii” bo‘linmasiga yoki Rossiya Ichki Ishlar Vazirligining Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo‘yicha Bosh Boshqarmasining Ichki Ishlar Boshqarmasi bo‘linmasiga topshiriladi.

Kelish to‘g‘risida xabarnomada¹ chet el fuqarosi haqiqatdan bo‘ladigan yoki istiqomat qiladigan joyning manzili ko‘rsatilishi kerak.

Migratsiya hisobi ro‘yxatidan o‘tkazish **bepul amalga oshiriladi**.

Muhim! Pul mukofoti evaziga migratsiya hisobi ro‘yxatidan o‘tkazish uchun xizmat ko‘rsatadigan vositachilarga murojaat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi!

Migratsiya hisobi ro‘yxatidan o‘tkazish paytida (masalan, agar fuqaro ro‘yxatdan o‘tgan joyda istiqomat qilmasa) yoki chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yoki uni qabul qiluvchi shaxs tomonidan soxta hujjatlar taqdim etsa, Rossiya Federatsiyasining Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 19.27-moddasiga muvofiq ma‘muriy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

¹ Migratsiya ro‘yxatidan o‘tkazishda to‘ldiriladigan blahk shakli

PATENT

Vizasiz ravishda kirib kelgan fuqarolar mehnat faoliyatini patent asosida amalga oshiradilar.

Patent - Rossiya Federatsiyasiga vizasiz kirish huquqiga ega bo'lgan xorijiy fuqarolarning ish beruvchilar va xizmat buyuruvchilari - jismoniy va yuridik shaxslar bilan mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Patent 1 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatga chet el fuqarosiga beriladi.



2-rasm. Patent

Muhim! Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga a'zo davlatlarning mehnat qilayotgan fuqarolaridan (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent olish talab qilmaydi.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga a'zo davlatlarning mehnat qilayotgan fuqarolari va ularning oila a'zolarining vaqtincha yashash muddati tuzilgan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaning amal qilish muddati bilan belgilanadi.

Patentni qanday rasmiylashtirish lozim?

Agar sizda savol qolgan bo'lsa, **8 800 333 00 16** „ishonch telefoniga“ qo'ng'iroq qiling. Qo'ng'iroq Rossyaning istalgan hududidan bepuldir.

Patentni rasmiylashtirish uchun chet el fuqarosi Rossiya Federatsiyasiga kirib kelgan kundan boshlab **o‘ttiz kalendar kun ichida** migratsiya xizmatiga shaxsan o‘zi yoki

Rossiya Federatsiyasi subyekti tomonidan vakolat berilgan tashkilot orqali zarur bo‘lgan hujjatlar to‘plamini taqdim etadi. Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatida patentni rasmiylashtirish uchun hujjatlarni taqdim etishga yordam beradigan vakolatli tashkilot Federal davlat unitar korxonasi (FGUP) “Pasport-viza xizmati” hisoblanadi. Chet el fuqarosi “Davlat xizmatlari” Internet portali orqali oldindan ro‘yxatdan o‘tgan holda patentni rasmiylashtirish uchun ariza va barcha zarur hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etish huquqiga ega.

Patent olish uchun murojaat qilish muddatining buzilishi (Rossiyaga kirib kelgan kundan boshlab 30 kundan oshib ketsa) 10000 dan 15000 rublgacha ma‘muriy jarima solinishiga sabab bo‘ladi.

Patentni rasmiylashtirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar:

- **ikki nusxada ariza;**
- **3x4 hajmdagi yaltiroq bo‘lmagan qog‘ozda fotosurat;**
- **shaxsni tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlangan tarjimai;**
- **tashrif maqsadi sifatida “ish” deb belgilangan migratsiya kartasi;**
- **ixtiyoriy tibbiy sug‘urta polisi;**
- **ijtimoiy xavfli kasalliklar, shu jumladan OIV infeksiyasi yo‘qligi to‘g‘risidagi tibbiy xulosa ma‘lumotnomasi;**

- Sankt-Peterburg hududida boshqalar uchun xavf tug‘diradigan giyohvandlik kasalligi va yuqumli kasalliklar yo‘qligini tasdiqlovchi hujjatlarni berishga vakolatli tibbiy tashkilotlarning ro‘yxati Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo‘yicha Rossiya Ichki Ishlar Vazirligining UVM GU veb-saytida ko‘rsatib o‘tilgan: 78.mvd.rf/migr/med_spb
- Leningrad viloyatida ishlash huquqi bilan patent olish uchun tibbiy komissiya ko‘rigidan faqat Sankt-Peterburg, Krasnogo Tekstilshika ko‘chasi, 10-12-uy, lit. B manzili bo‘yicha o‘tish mumkin.

- rus tilini, Rossiya tarixini va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining asoslarini bilishlikni tasdiqlovchi hujjat

- Test markazlarida rus tili bo‘yicha sinovdan o‘tish hamda rus tilini bilish haqida sertifikat olish mumkin. Sankt-Peterburgdagi sinov markazlari ro‘yxatini Rossiya Federatsiyasi Ichki Ishlar Vazirligining Sankt-Peterburg

- va Leningrad viloyati bo'yicha Rossiya Ichki Ishlar Vazirligining UVM GU veb-saytida ko'rsatib o'tilgan: 78.mvd.rf/migr/ekz_spb.
- SSSR hududida 1991 yil 1 sentyabrgacha berilgan diplom yoki shahodatnoma, yohud 1991 yil 1 sentyabrdan keyin Rossiya Federatsiyasi hududida berilgan diplom yoki shahodatnoma rus tilini, Rossiya tarixini va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining asoslarini tasdiqlovchi hujjat bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday holda, sinovdan o'tish shart emas.

- yashash joyida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjat (“ro'yxatdan o'tish”);

- 1 oylik avans to'lovini amalga oshirganlik to'g'risidagi chipta.

“Davlat xizmatlari” orqali patentni rasmiylashtirish uchun hujjatlarni qanday topshirish kerak?

“Davlat xizmatlari” Internet portali orqali qabulga yozilishni amalga oshirish uchun brauzer orqali “Davlat xizmatlari” Internet portalini topish va “ro'yxatdan o'tish” tugmasini bosish lozim.

Portalda ro'yxatdan o'tish uchun fuqaroning belgilangan ma'lumotlarini, haqiqiy pasport ma'lumotlarini va SNILS² (majburiy pensiya sug'urtasi tizimidagi sug'urtalangan shaxsning shaxsiy hisob raqamining sug'urta raqami) kiritish kerak. Keyinchalik, 15 daqiqadan 5 kungacha davr ichida fuqaroning ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar tekshiriladi.

Tizimda ko'rsatilgan ma'lumotlar tasdiqlangandan so'ng, fuqaro yaqin atrofdagi Ko'p vazifali markaz bo'linmasiga murojaat qilishi va “Davlat xizmatlari” portalida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlashi kerak. Shundan so'ng, portalda “Patent berilishi” xizmatini tanlash va “Qabulga yozilish” tugmasini bosish zarur. Ro'yxatga olish uchun bo'sh vaqt mavjud bo'lsa, fuqaro o'zi uchun qulay vaqtni tanlaydi va patentni olish haqida ariza topshirayotgan paytda Krasnogo Tekstilshika ko'chasi, 15-uy manzili bo'yicha joylashgan 136-sonli oynada ko'rsatilishi kerak bo'lgan raqamli kodni oladi.

Patent fuqaroning arizasini va barcha zarur hujjatlarni qabul qilingan kundan boshlab **10 ish kuni ichida rasmiylashtiriladi.**

² SNILS yashash joyida Rossiya Federatsiyasi Pensiya jamg'armasi bo'limiga murojaat qilish orqali berilishi mumkin. Pasportning notarial tasdiqlangan tarjimasi taqdim etilishi lozim (hujjat chet tilida rasmiylashtirilgan holda bo'lsa).

Patentning amal qilish muddati bir oy muddat davrdan bir necha marta uzaytirilishi mumkin, ammo patent berilgan kundan boshlab uzaytirish muddati 12 oydan oshmasligi kerak.

Muhim! Fuqaro patentda ko'rsatilgan faqat shu hududda va shu mutaxassislik bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati - Rossiya Federatsiyasining turli xil hududlari bo'lib hisoblanadi. Sankt-Peterburgda ishlash uchun berilgan patent Leningrad viloyatida ishlashga ruxsat bermaydi va aksincha.

Avans to'lovni qanday amalga oshirish lozim?

Patent uchun avans to'lovini to'lash to'g'risidagi birinchi chek patent orqasida ko'rsatilgan patent berilgan sanadan boshlab amal qiladi. Har bir keyingi avans to'lovi har bir to'langan oy tugashidan 1 kun oldin to'lanadi.

Patent uchun avans to'lovi to'g'risidagi chekda patentning amal qilish muddati uzaytiriladigan shaxsning ma'lumotlari ko'rsatilishi kerak. Avans to'lovini amalga oshirish uchun to'lovchining (patentning amal qilish muddatini uzaytirgan shaxsning) STIR raqami ko'rsatilishi kerak³.

Avans to'lovi o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, patentning amal qilish muddati soliq to'langan davrning oxirgi kundan keyin keladigan kundan boshlab to'xtatiladi.

Mehnat shartnomasini tuzish

Patent berilgan kundan boshlab ikki oy ichida chet el fuqarosi patentni bergan migratsiya xizmatiga mehnat shartnomasi nusxasini yoki ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaning nusxasini shaxsan o'zi topshirishi yoki buyurtma pochta orqali yuborishi shart.

³ Patent rasmiylashtirilayotganda chet el fuqarosiga STIR raqami beriladi. STIR soliq organiga shaxsiy tashrifi paytida qog'oz shaklda soliq organida ro'yxatdan o'tish uchun ariza to'ldirish va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish hamda yashash joyida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlash orqali jismoniy shaxsga berilishi mumkin. Soliq organi tomonidan jismoniy shaxsga berilgan guvohnoma, jismoniy shaxsning yashash joyi o'zgargan taqdirda, almashtirilmaydi.

Ish beruvchi yoki ish (xizmat) buyuruvchi chet el fuqarosi bilan mehnat shartnomasi yoki ishlar (xizmatlar) amalga oshirish uchun fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish va tugatish (bekor qilish) Rossiya Federatsiyasining mehnat faoliyatini amalga oshiradigan hududda Rossiya Federatsiyasining subyektidagi migratsiya xizmatini tegishli shartnoma tuzilgan yoki bekor qilingan kundan boshlab uch ish kundan oshmaydigan muddatda xabardor qilish shart.

Ishchi bilan mehnat shartnomasi **ishga qabul qilingan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmasdan** yozma shaklda tuzilishi kerak. Mehnat shartnomasi ikki nusxada tuziladi, ulardan biri xodimga beriladi. Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Ishchi ishga qabul qilinganlik haqidagi buyruqning nusxasini olish huquqiga ega.

Muhim! Ishni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mehnat shartnomasi yoki fuqarolik shartnomasining nusxasi taqdim etilmagan taqdirda, patent bekor qilinishi mumkin.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish hududini qanday o'zgartirish mumkin?

Fuqaro tomonidan Rossiya Federatsiyasining boshqa subyekti hududida mehnat faoliyati amalga oshirilishi uchun ushbu fuqaro o'z mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan hududda joylashgan migratsiya xizmatiga patent olish uchun murojaat qilishi shart.

Bunday holda, fuqaro shaxsan o'zi yoki Rossiya Federatsiyasi subyekti tomonidan vakolat berilgan tashkilot orqali quyidagilarni taqdim etadi:

- **ikki nusxada ariza;**
- **3x4 hajmdagi yaltiroq bo'lmagan qog'ozda fotosurat;**
- **shaxsni tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlangan tarjimasini;**
- **ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (sug'urta tashkilotlarida rasmiylashtiriladi, masalan VSK, ROSNO, Rosgosstrax);**
- **ijtimoiy xavfli kasalliklar, shu jumladan OIV infeksiyasi yo'qligi to'g'risidagi tibbiy xulosa ma'lumotnomasi;**

Agar sizda savol qolgan bo'lsa, **8 800 333 00 16** „ishonch telefoniga“ qo'ng'iroq qiling. Qo'ng'iroq Rossyaning istalgan hududidan bepuldir.

- amaldagi patent uchun avans to'lovlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Hujjatlar Davlat xizmatining Internet portali orqali oldindan yozilgan holda taqdim etiladi.

Bunday patent dastlab berilgan patent amal qilish muddatidan oshmaydigan muddatga berilishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi hududida qonuniy ravishda qolish uchun, fuqaro yangi subyektda kuchga kirgan patentni olishdan oldin mavjud patentni to'lovini amalga oshirishi lozim.

Rossiya Federatsiyasidan tashqariga chiqmasdan turib patentni qanday qilib qayta rasmiylashtirish mumkin?

Fuqaro Rossiya Federatsiyasidan tashqariga chiqmasdan turib patentni qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun bir marta murojaat qilish huquqiga ega. Buning uchun patent berilgan kundan boshlab **o'n ikki oy o'tgunga qadar kamida o'n ish kundan oldin** patent bergan migratsiya xizmatiga murojaat qilish kerak.

Patentni qayta rasmiylashtirish uchun chet el fuqarosi shaxsan yoki Rossiya Federatsiyasi subyekti tomonidan vakolat berilgan tashkilot orqali quyidagilarni taqdim etadi:

- **ikki nusxada ariza;**
- **3x4 hajmdagi yaltiroq bo'lmagan qog'ozda fotosurat;**
- **shaxsni tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlangan tarjimasi;**
- **tashrif maqsadi sifatida "ish" deb belgilangan migratsiya kartasi;**
- **amaldagi patent uchun avans to'lovlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;**
- **ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (sug'urta tashkilotlarida rasmiylashtirildi, masalan VSK, ROSNO, Rosgosstrax);**
- **ijtimoiy xavfli kasalliklar, shu jumladan OIV infeksiyasi yo'qligi to'g'risidagi tibbiy xulosa ma'lumotnomasi;**
- **rus tilini, Rossiya tarixini va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining asoslarini bilishlikni tasdiqlovchi hujjat;**
- **yashash joyida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjat ("ro'yxatdan o'tish");**

- patentni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ish beruvchining iltimosnomasi;
- ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma.

Hujjatlar Davlat xizmatining Internet portali orqali oldindan yozilgan holda taqdim etiladi.

Migratsiya xizmatida patent amal qilish davrida chet el fuqarosining mehnat faoliyatini amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumot mavjud bo'lmagan taqdirda, patent qayta rasmiylashtirilmaydi.

Agar fuqaroga patent berish yoki qayta rasmiylashtirish rad etilgan bo'lsa yoki ilgari unga berilgan patent bekor qilingan bo'lsa, ushbu fuqaro patent berish yoki uni qayta rasmiylashtirish rad etilgan yoki ilgari berilgan patentni bekor qilingan kundan boshlab bir yil o'tgandan keyin patent berish uchun ariza berish huquqiga ega.

Nima uchun patent berilishi rad etildi?

Patent berilishini rad etish yoki ilgari berilgan patentni bekor qilish uchun quyidagilar asos bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- o'z haqida soxta yoki qalbaki hujjatlar taqdim etish yoki bila turib yolg'on ma'lumot berish;
- jinoyat sodir etganlik uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi;
- jinoyat sodir etganligi uchun tugallanmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganlik holati;
- bir yil davomida bir necha marta (2 yoki undan ortiq) qolish (yashash) rejimini ta'minlash qismi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganlik;
- Rossiyada qolish (yashash) mumkin emasligi to'g'risida qaror yoki Rossiya Federatsiyasiga kirishga ruxsat bermaslik to'g'risida qaror qabul qilinganlik holati.

Agar patent yo‘qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan bo‘lsa, nima qilish kerak?

Agar patent yo‘qolgan yoki shikastlangan taqdirda, fuqaro patent bergan migratsiya xizmatiga patent dublikatini berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Buni amalga oshirish uchun quyidagilarni taqdim etish lozim:

- ariza;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlangan tarjimasi;
- tashrif maqsadi sifatida “ish” deb belgilangan migratsiya kartasi;
- amal qiluvchi yo‘qolgan yoki shikastlangan patent uchun avans to‘lovlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

➤ Agar pasport yo‘qolgan bo‘lsa, nima qilish kerak?

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat yo‘qolgan taqdirda yaqin atrofdagi politsiya bo‘limiga yoki topilmalar idorasiga murojaat qilish lozim (Sankt-Peterburg, Bolshaya Monetnaya ko‘chasi, 16-uy), u erda murojaat qilinganlik faktini tasdiqlovchi ma’lumotnoma beriladi. Shundan so‘ng tegishli fuqarolik vakolatxonasiga pasport yoki Vatanga qaytish uchun guvohnoma rasmiylashtirib berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilish kerak.

➤ Agar ismi-sharif yoki pasport ma’lumotlari o‘zgargan bo‘lsa, nima qilish kerak?

Patentning amal qilish muddati davomida shaxsni tasdiqlovchi hujjatning familiyasi, ismi yoki otasining ismi yoki ma’lumotlari o‘zgargan hollarda fuqaro patentga kiritilgan ma’lumotlarga o‘zgartirish kiritish maqsadida patent bergan migratsiya xizmatiga yetti ish kuni ichida; yoki Rossiya Federatsiyasidan tashqarida ma’lumotlar o‘zgargan taqdirda, Rossiya Federatsiyasiga kirgan kundan boshlab yetti ish kuni mobaynida murojaat qilishi shart.

Rossiya Federatsiyasiga kirishga ruxsat bermaslik to'g'risidagi qaror quyidagi asoslar bo'yicha qabul qilinishi mumkin:

- uch yil davomida bir necha marta (ikki yoki undan ortiq) Rossiya Federatsiyasi hududida ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganlik (oxirgi ma'muriy javobgarlikka tortilgandan keyin uch yil mobaynida);
- avvalgi turar joyidan Rossiya Federatsiyasidan vaqtinchalik yashash muddati tugagan kundan boshlab o'ttiz kun o'tgunga qadar chiqmaslik (Rossiyadan chiqib ketgan kundan boshlab uch yil mobaynida);
- Rossiya Federatsiyasidan chiqarib yuborish yoki deportatsiya qilish to'g'risida qarorning mavjudligi (chiqarib yuborilgan yoki deportatsiya qilingan kundan boshlab besh yil mobaynida);
- agar Rossiya Federatsiyasidan chiqarib yuborish yoki deportatsiya qilish to'g'risidagi qaror bir necha bor (ikki yoki undan ortiq) qabul qilingan bo'lsa (chiqarib yuborilgan yoki deportatsiya qilingan kundan boshlab o'n yil mobaynida);
- qasddan sodir etilgan jinoyati uchun olib tashlanmagan yoki tugallanmagan sudlanganlik holati mavjud bo'lsa;
- bir yil davomida bir necha bor (ikki yoki undan ortiq) jamoat tartibiga va jamoat xavfsizligiga tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun yoki Rossiya Federatsiyasi hududida bo'lish (yashash) rejimini yoki mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganlik (oxirgi ma'muriy jinoiy ish qo'zg'atilgan kundan boshlab besh yil mobaynida);
- har bir davr davomida bir yuz sakson kun ichida jami to'qson kunlik qolish davridan oshib ketishi (Rossiya Federatsiyasidan chiqib ketgan kundan boshlab uch yil mobaynida);
- doimiy ravishda bir yuz sakson kundan ortiq vaqt davomida, lekin ruxsat etilgan vaqtinchalik yashash muddati tugagan kundan boshlab ikki yuz yetmish kundan oshmagan muddatda Rossiyada bo'lish (Rossiya Federatsiyasidan chiqib ketgan kundan boshlab besh yil mobaynida);
- ruxsat etilgan vaqtinchalik yashash muddati tugagan kundan boshlab ikki yuz yetmish kundan ortiq vaqt davomida doimiy ravishda Rossiyada bo'lish (Rossiya Federatsiyasidan chiqib ketgan kundan boshlab o'n yil mobaynida).

Agar sizda savol qolgan bo'lsa, **8 800 333 00 16** „ishonch telefoniga“ qo'ng'iroq qiling. Qo'ng'iroq Rossiyaning istalgan hududidan bepuldir.

Rossiya Federatsiyasiga kirishga ruxsat bermaslik to'g'risidagi qarorni Rossiyaga kirishni taqiqlash to'g'risida qaror qabul qilgan Rossiya Ichki Ishlar Vazirligi Bosh Boshqarmasining Migratsiya masalalari bo'yicha Boshqarma tomonidan bekor qilinishi mumkin:

- Agar oila a'zolari (er, xotin, bolalar) Rossiya Federatsiyasi fuqarolari bo'lsa;
- amnistiya holatida;
- agar noto'g'ri qaror qabul qilingan bo'lsa.

Shuningdek, quyidagi hollarda Rossiya Federatsiyasiga kirishga ruxsat berilmaydi:

- o'z haqida yoki Rossiyada qolish maqsadi haqida bila turib yolg'on ma'lumot berish;
- tibbiy sug'urta polisi taqdim etmaslik;
- soliq yoki ma'muriy jarimani to'lashdan bo'yin tovlash yoki Rossiya Federatsiyasidan ma'muriy haydaliq yoki deportatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplamaslik.

VOYAGA YETMAGAN BOLALAR

Chet el fuqarolarining voyaga yetmagan bolalarini tashrif buyurish tartibi qanday?

Voyaga yetmagan bolalarning Rossiya Federatsiyasi hududida yashash muddati **har 180 kun mobaynidagi davr uchun 90 kun ruxsat etiladi**. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlardan mehnat qilayotgan fuqarolari farzandlariga qolish muddati mehnat shartnomasi yoki Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlarning mehnat qilayotgan fuqarolari tomonidan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnomaning amal qilish muddati bilan belgilanadi.

Maktab yoshidagi bolalar umumta'lim maktabiga borishlari shart!

➤ Bolani maktabga qanday yozdirish mumkin?

Maktabga qabul qilish uchun qonuniy vakil **yashash joyidagi ko'p vazifali markazga (MFS)** murojaat qilishi kerak. Bolani maktabga joylashtirishda, uning bilim darajasiga va rus tilini bilish darajasiga qarab, ota-onalarga bolani pastroq sinfga qabul qilinishi taklifi kiritilishi mumkin. Bolani maktabga qabul qilishda rad etilgan taqdirda, qonuniy vakil bolani qabul qilish masalasini hal qilish maqsadida

yashash joyidagi tuman ta'lim bo'limiga (RONO) murojaat qilish huquqiga ega, ehtimol bola shu tumanning boshqa maktabiga qabul qilinishi mumkindir.

Voyaga yetmagan bolalarning yashash muddatini qanday uzaytirish mumkin?

Rossiya Federatsiyasi qonunida Rossiya Federatsiyasi hududida patent asosida mehnat faoliyatini amalga oshiradigan ota-onalarning bolalari yashash muddatini uzaytirilishi ko'zda tutilmagan. **Migratsiya xizmati bunday masalalarni alohida tartibda ko'rib chiqadi.** Voyaga yetmagan bolaning yashash muddatini uzaytirish masalasini hal qilish uchun qonuniy vakil **yashash joyidagi migratsiya xizmatining hududiy bo'linmasiga** murojaat qilish huquqiga ega. Bolaning qonuniy vakili arizasi asosida migratsiya xizmati voyaga yetmagan shaxsning yashash muddatini uzaytirish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, voyaga yetmagan bolaning yashash muddati qonuniy vakilning ruxsat etilgan muddatiga (patent uchun to'langan avans to'lovlari muddatiga) uzaytiriladi.

FOYDALI ALOQALAR

ISH QIDIRISH

<http://trudvsem.ru> – Mehnat va bandlik bo'yicha Federal xizmatning butunrossiya vakansiyalar bazasi.

Sankt-Peterburg davlat avtonom muassasasi «Mehnat resurslari markazi»

- *Sankt-Peterburgdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirishda chet el fuqarolariga yordam beradi;*
- *Sankt-Peterburg hududida chet el fuqarolarini ishga joylashtirishga yordam beradi;*

- *tibbiy ko'rikdan o'tish, kasbiy malakaviy, rus tili, Rossiya Federatsiyasi tarixi va qonunchiligi sinovlaridan o'tish, tibbiy sug'urta qilish bilan bog'liq xizmatlarni amalga oshiradi.*

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Tramvayniy prospekt, 12-uy, 2-korpus
Telefon: +7 (812) 758-36-34
Ishonch telefoni: 8-800-333-70-97
Sahifa: <http://gauctr.ru>

MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Sankt-Peterburg shahridagi davlat mehnat inspeksiyasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Zoi Kosmodemyanskoy ko‘chasi, 28a-uy
Telefon: 8 (812) 746-59-86, 8 (812) 374-31-97
Sahifa: www.git78.rostrud.ru

Sankt-Peterburg shahri prokuraturasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Pochtamtskaya ko‘chasi, 2/9-uy
Telefon: 8 (812)318-26-34
Sahifa: <http://procspb.ru/>

Rossiya Federatsiyasi Tergov qo‘mitasining Sankt-Peterburgdagi Bosh Tergov Boshqarmasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Naberejnaya reki Moyki, 86-88-uy
Ishonch telefoni: 8 (812) 571-00-40
Navbatchi telefoni: 8 (812) 570-66-71
Sahifa: <http://spb.sledcom.ru/>

Sankt-Peterburg shahridagi inson huquqlari bo‘yicha vakolatli shaxs

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, pereulok Sherbakov, 1/3-uy
Telefon: 8 (812) 764-00-54
Sahifa: <http://ombudsmanspb.ru/>

Sankt-Peterburgdagi bola huquqlari bo‘yicha vakolatli shaxs

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, pereulok Grivtsova, 11-uy
Telefon: 8 (812) 576-70-00
Sahifa: <http://spbdeti.org>

BEPUL YURIDIK MASLAHAT

„Rossiya Qizil Xochi“ Butunrossiya jamoat tashkilotining Sankt-Peterburg shahrining mintaqaviy bo‘limi.

- Rossiya Federatsiyasining migratsiya va mehnat qonunchiligi bo‘yicha xorijiy fuqarolar va ish beruvchilarga maslahat berish.

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Goncharnaya ko‘chasi, 19D- uy
Krasnogo Tekstilshika ko‘chasi, 15-uy (104-sonli darcha)
Butun Rossiya bo‘ylab bepul „Ishonch telefoni“: 8-800-333-00-16.
Sahifa: www.spbredcross.org

MIGRANTLARNING BOLALARI UCHUN RUS TILI KURSLARI

Sankt-Peterburg ROO „Sankt-Peterbur shahrining bolalari“

- Tashkilot migrantlarning bolalari uchun bepul rus tili kurslari va maktabga tayyorgarlikni amalga oshiradi.

Telefon: +7-911-773-77-87

Sahifa: <http://spbdeti.org/>

SANKT-PETERBURGDAGI ELCHIXONALAR VA KONSULLIK MUASSASALARI

Qirg‘iziston Respublikasining Sankt-Peterburgdagi faxriy konsulligi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Nevskiy prospekt, 132-uy 16-ofis

Telefon: 8 (812) 717-00-27, 8 (812) 939-35-40

Elektron pochta: abdiev.cons.kg@mail.ru

Qirg‘iziston Respublikasining Sankt-Peterburgdagi elchixonasi bo‘linmasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, 7-ya liniya Vasilevskogo ostrova, 76- uy, 308- ofis

Telefon: 8-900-634-90-95, 8-962-688-25-06

Elektron pochta: konsul_kr_spb@mail.ru

Tojikiston Respublikasining Sankt-Peterburgdagi Bosh Konsulxonasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Tambovskaya ko‘chasi, 10- uy, A-liter

Agar sizda savol qolgan bo‘lsa, **8 800 333 00 16** „ishonch telefoniga“ qo‘ng‘iroq qiling.
Qo‘ng‘iroq Rossiyaning istalgan hududidan bepuldir.

Telefon: 8 (812) 490-47-46, +7 967-349-29-44

Elektron pochta: tajgencons.piter@mfa.tj

O‘zbekistonning Sankt-Peterburgdagi Bosh Konsulxonasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, 4-ya Krasnoarmeyskaya ko‘chasi, 4A-uy

Telefon: 8 (812) 601-06-28

Elektron pochta: gkruspb@mail.ru

Ukrainaning Sankt-Peterburgdagi Bosh Konsulxonasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Bonch-Bruyevicha ko‘chasi, 1V- uy

Telefon: 8 (812) 331-51-65, 331-51-66, 331-51-69, 331-51-63

Elektron pochta: gkruspb@mail.ru

Ozarbayjon Respublikasining Sankt-Peterburgdagi Bosh Konsulxonasi

Manzil Sankt-Peterburg shahri, 2-ya Sovetskaya ko‘chasi, 27- uy

Telefon: + 7(812) 717-39-91

Elektron pochta: stpetersburg@mission.mfa.gov.az

Armaniston Respublikasining Sankt-Peterburgdagi Bosh Konsulxonasi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Bolshoy Prospekt VO, 57/15

Telefon: +7 812 670 38 08, +7 812 670 35 05

Elektron pochta: armgenconsulatepetersburg@mfa.am

Belorusiya Respublikasining Rossiyadagi elchixonasining Sankt-Peterburgdagi bo‘limi

Manzil: Sankt-Peterburg shahri, Bonch-Bruyevicha ko‘chasi, 3a -uy

Telefon: +7 812 274-72-12, 275-81-30

Elektron pochta: russia.petersburg@mfa.gov.by

**„Rossiya Qizil Xochi“
Butun Rossiya jamoat tashkilotining
Sankt-Peterburg mintaqaviy bo‘linmasi**

**MIGRATSIYA QONUNCHILIGI BO‘YICHA
HUQUQIY YORDAM KO‘RSATISH:**

1. Ofisda qabul qilish uchun manzil:

191036, Sankt-Peterburg,
Goncharnaya ko‘chasi, 19 D -uy
Telefon.: +7 (812) 717 35 31/34
Faks: +7 (812) 717 35 31/34
rcc@spbredcross.org

2. Qizil Xoch jamoatchilik qabulxonasi:

191124, Sankt-Peterburg
Krasnogo Tekstilshika ko‘chasi, 15-uy
104-darcha

3. Migratsiya qonunchiligi bo‘yicha
Butun Rossiya ishonch telefonining bepul telefon raqami:
8 800 333 00 16



**РОССИЙСКИЙ
КРАСНЫЙ КРЕСТ**
Санкт-Петербургское отделение

